

**JOURNAL
OF INNOVATIONS
IN SCIENTIFIC AND
EDUCATIONAL RESEARCH
SJIF(2024):6.618**

JISER

**International
multidisciplinary
scientific journal**



Volume 8, Issue 6

- ✓ Academic journal, an academic or scholarly periodical
- ✓ Scientific journal, an academic journal focusing on science
- ✓ Medical journal, an academic journal focusing on medicine
- ✓ Law review, a professional journal focusing on legal interpretation



GLOBALIZATION
TECHNOLOGY



***“JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC
AND EDUCATIONAL RESEARCH”***

VOLUME 8, ISSUE 6
(30- June)

Ushbu to'plamda **"JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH "** ilmiy jurnaliga kelib tushgan maqolalar o'rin olgan.

Mazkur jurnalda zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda yo'nalishlar bo'yicha kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktab o'qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir:

Kamalova Dilnavoz Ixtiyorovna

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Navoiy davlat pedagogika instituti

Mas'ul kotib:

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o'g'li

Nashrga tayyorlovchi:

Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

Abduraxmonov Sarvar

Farg'ona davlat universiteti

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Mo'minov Qobiljon Qodirovich

Fizika-matematika fanlari doktori professor

Sultonali Mannopov

O'zbekiston xalq artisti, professor

Mamatova Nodira Muxtarovna

Tibbiyot fanlari Doktori (Ds)

Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Rasulova Vasila Batirovna

Toshkent farmatsevtika instituti, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Nikadambayeva Hilola Batirovna

Uzbekiston jurnalistika va ommaviy

kommunikatsiyalar universiteti, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Pirimov Akram Pirimovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent

Shodiyev Furqat Davranovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari nomzodi, Dotsent

Qurbonova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Otaqulov Fozil Sobirovich

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Aslanov Xakimjon Ro'ziboyevich

FarDU, Harbiy ta'lim fakulteti Umumqo'shin tayyorgarligi sikli boshlig'i, podpolkovnik

Karimov O'lmasbek Umaraliyevich

FarDU o'qituvchisi

Mamatqulov Muzaffar Odiljon o'g'li

O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona viloyat boshqarmasi bo'lim boshlig'i

Baltayeva Ikkal Tadjibayevna

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Sayfullayeva Ra'noxon Raupovna

Filologiya fanlari doktori, professor. O'zbekiston milliy universiteti.

Popova Tatyana Igorevna

Doctor filologicheskix nauk, professor. SanktPeterburg davlat universiteti. Rossiya.

Berdaliev Abduvali

Filologiya fanlari doktori. Tojikiston. Xo'jand davlat universiteti.

Manzuraxon Ernazarova

Filologiya fanlari doktori, professor. Navoi davlat pedagogika instituti.

Uluqov Nosirlon Muxammadaliyevich

Filologiya fanlari doktori. Namangan davlat universiteti.

Jumanazarova Guljahon

Filologiya fanlari doktori. Jizzax davlat universiteti.

A.A.Qosimov

Filologiya fanlari doktori, professor. Farg'ona davlat universiteti.

Jo'rayev Habibullo Abdusalomovich

Filologiya fanlari doktori. Farg'ona davlat universiteti.

Fayzimatov Shuxratjon No'monovich

Texnika fanlari doktori. Farg'ona politexnika instituti.

Hoshimov G'anijon Mirzaaxmadovich

Filologiya fanlari doktori. Andijon davlat universiteti.

Hulkar Hamroyeva

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. O'zbekiston respublikasi yozuvchilar uyushmasi a'zosi, jurnalist.

O'rinboyev No'monjon O'rmonovich

falsafa fanlari nomzodi, dotsent. XTXMOIO`

Qurbonova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. Farg'ona davlat universiteti.

Qunduzxon Atabayevna

Filologiya fanlari doktori, professor. O'zbekiston. Jahon tillari universiteti.

HojaliyevIsmoiljonTojiboyevich

Farg'onadavlatuniversitetifilologiyafanlarinomzodi, dotsent.

Erofeeva Inna Nikolaevna

Kandidat pedagogicheskix nauk, dotsent. Sankt Peterburg davlat universiteti. Rossiya.

Toshtemirova Zamira Sotvoldiyevna

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Farg'ona davlat universiteti.

G.O.Abdugafurovich

Filologiya fanlari nomzodi. Farg'ona davlat universiteti.

VOLUME-8, ISSUE-6		
1.	PEDAGOGIK TIZIMLARDA TIZIMLI TAHLIL METODLARIDAN FOYDALANISH ASOSLARI. <i>Axrorova Umida Xamidullayevna</i>	8
2.	GALL KISLOTANING ATOM ZARYAD QIYMATLARINI VA ELEKTROSTATIK POTENSIALINI HYPERCHEM DASTURIDA O'RGANISH <i>Kadirova Shoxida Ozotboevna</i> <i>Yuldasheva Muxabbat Razzoqberdievna</i> <i>Abdumannopova Nasibaxon Baxodir qizi</i>	16
3.	TURIZM MARKETING VA BRENDING STRATEGIYALARI; MUVAFFAQIYAT OMILLARI <i>Olimjonova Sehriyo Muzaffar qizi</i>	19
4.	AUTOMATIC ADJUSTMENT SYSTEMS IN CNC MACHINES AND THEIR EFFICIENCY <i>Abdulkhakimov Nasobiddin</i> <i>Nabiye B N</i>	26
5.	"KINOAKTYOR PLASTIKASI" <i>Ilhom Masalimov</i>	30
6.	STUDY OF MECHANICAL PROPERTIES OF SHOE SOLE MATERIALS <i>Aslonov A.M</i> <i>Musaev S.S</i>	34
7.	ORTO-KSILOLNING ATOMLARI ZARYAD QIYMATLARI VA AYRIM ENERGETIK PARAMETRLARINI HYPER CHEM DASTURIDA O'RGANISH VA CHEM OFFICE DASTURI BILAN TAQQOSLASH <i>Pardaqlulov Abbos Akram o'g'li</i> <i>Abdumannopova Nasibaxon Baxodir qizi</i> <i>Xoliyorov Shovkat Bakirovich</i>	40
8.	СВЯЗЬ МЕЖДУ ИМЕНОВАНИЕМ И ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИМИ ФУНКЦИЯМИ ЯЗЫКА <i>Худайбердиева Лазиза Санжаровна</i>	48
9.	SAYLOV YOKI REFERENDUM TASHKIL QILISH VA ULARNI O'TKAZISH TO'G'RI SIDAGI QOIDALARNI BUZISH <i>Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i>	53
10.	TITLE: LANGUAGE AS A SOCIAL MARKER: A COMPARATIVE ANALYSIS OF LABOV'S 1963 AND 1972 SOCIOLINGUISTIC STUDIES <i>Hamroyeva Muborak Jumanazarovna</i>	58
11.	"ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA INSON KAPITALINING ROLI VA AHAMIYATI" <i>Musulmonova Shahlo</i> <i>Hikmatov Mirkomil</i>	61
12.	"MEHNAT MUNOSABATLARIDA ATTESTATSIYANING O'RNI VA HUQUQIY AHAMIYATI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV" <i>Zokirkonov Zoxidjon Zoirjon o'g'li</i>	68
13.	BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI <i>Xursanova Gavhar Umar qizi</i>	73

14.	UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA 5-7-SINF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'AT FANINING ROLI <i>Hamidova Dildora Muxiddin qizi</i>	78
15.	ПРОГРАММНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ И МОНИТОРИНГ ДЛЯ ИЗМЕРЕНИЯ КОНЦЕНТРАЦИИ УГЛЕКИСЛОГО ГАЗА <i>Айнакулов Шарафидин Абдужалилович</i> <i>Кубяшев Кураш Эгамович</i>	82

“ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA INSON KAPITALINING ROLI VA AHAMIYATI”

Musulmonova Shahlo

BuxDU o'qituvchisi

Hikmatov Mirkomil

BuxDU talabasi

Anotatsiya: Maqolada inson kapitalining zamonaviy iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati va uning makroiqtisodiy jarayonlarga ta'siri muhokama qilinadi. Inson kapitali ta'lim, sog'liqni saqlash, ko'nikma va malakalar majmuasi sifatida iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi. Maqolada innovatsiyalar, texnologik taraqqiyot va mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik inson kapitali orqali qanday rivojlanayotgani tahlil qilinadi. O'zbekiston iqtisodiyoti misolida inson kapitalining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari ko'rib chiqilib, uning amalga oshirilishi bo'yicha strategik tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, iqtisodiy farovonlik, innovatsion taraqqiyot, inson kapitali, bilim, innovatsion texnologiyalar, raqobatbardoshlik, ijtimoiy infratuzilma, barqaror o'sish

Abstract: The article discusses the importance of human capital in modern economic development and its impact on macroeconomic processes. Human capital, consisting of education, healthcare, skills, and competencies, is considered a crucial factor for economic growth. The article analyzes how innovation, technological progress, and labor market competitiveness develop through human capital. Using the example of the economy of Uzbekistan, trends and prospects for the development of human capital are examined, and strategic recommendations for its enhancement are provided.

Keywords: national economy, economic well-being, innovative development, human capital, knowledge, innovative technologies, competitiveness, social infrastructure, sustainable growth.

Аннотация: В статье рассматривается значение человеческого капитала в современном экономическом развитии и его влияние на макроэкономические процессы. Человеческий капитал, включающий образование, здравоохранение, навыки и компетенции, является важнейшим фактором экономического роста. Анализируется, каким образом инновации, технологический прогресс и конкурентоспособность на рынке труда развиваются через человеческий капитал. На примере экономики Узбекистана рассматриваются тенденции и перспективы развития человеческого капитала, а также предлагаются стратегические рекомендации по его совершенствованию.

Ключевые слова: национальная экономика, экономическое благосостояние, инновационное развитие, человеческий капитал, знания,

KIRISH

Zamonaviy dunyoda iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida inson kapitali alohida o'rin tutadi. An'anaviy iqtisodiy qarashlarda ishlab chiqarish omillari sifatida yer, kapital va mehnat tilga olinadigan bo'lsa, bugungi globallashtirish va texnologik taraqqiyot sharoitida inson kapitali mazkur omillar ichida eng muhim va hal qiluvchi resurs sifatida e'tirof etilmoqda. Inson kapitali deganda insonning ta'lim, sog'liq, ko'nikma, tajriba va salohiyati orqali iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish qobiliyati tushuniladi.

Metodologiya. Ushbu maqolada inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni xalqaro va milliy statistik ma'lumotlar, ochiq manbalar, davlat hisobotlari asosida tahlil qilindi. Ma'lumotlar 2022–2023 yillarga tegishli bo'lib, O'zbekiston va rivojlangan davlatlar misolida solishtirma tahlil (comparative analysis) va jadval usuli asosida yoritilgan.

Tadqiqot natijalari. Inson kapitali rivojlangan sari nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashadi, balki innovatsion yangiliklarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlari ham kengayadi. Bugungi kunda davlatlar o'zining iqtisodiy strategiyalarida inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berib, uni uzoq muddatli barqaror taraqqiyotning tayanch omili deb bilmoqda.

Inson kapitali bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular har bir fuqaroning iqtisodiy samaradorlikdagi o'rnini belgilaydi. Ularning eng asosiysi ta'limdir. Ta'lim inson kapitalining eng muhim elementi bo'lib, shaxsning kasbiy malakasi, ijodiy fikrlashi va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Sifatli ta'lim nafaqat individual daromadlarni oshiradi, balki umuman jamiyatda innovatsion salohiyatning o'sishiga olib keladi.

2022 yilda O'zbekistonning ta'lim indeksi 0.727 bo'lib, bu esa ta'lim tizimining rivojlanayotganini ko'rsatadi. Dunyo yetakchilari: Shveytsariya, Norvegiya va Islandiya kabi davlatlar ta'lim tizimi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega. Ularning ta'lim indeksi 0.950 dan yuqori bo'lib, o'rtacha o'qish yillari 13 yildan oshadi. O'zbekiston ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun ta'limga ajratiladigan byudjetni oshirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va maktab infratuzilmasini modernizatsiya qilish zarur.

Finlyandiya va Norvegiya kabi davlatlarda o'qituvchi bo'lish uchun yuqori darajadagi malaka talab qilinadi. Ya'ni o'qituvchi bo'lish uchun o'z ustida ko'p ishlash va malakasini oshirish uchun o'ziga sarmoya ajratish lozim.

“O‘zbekiston va dunyo yetakchi davlatlarining ta’lim ko‘rsatkichlari 2022- 2023”⁸

Davlat	Ta’lim indeksi (2023)	O‘rtacha o‘qish yillari	Kutilayotgan o‘qish yillari
Islandiya	0.960	14.3	21.1
Germaniya	0.957	14.3	21.1
Norvegiya	0.937	13.5	19.0
Buyuk Britaniya	0.936	13.0	18.0
Daniya	0.933	13.0	18.0
Shvetsiya	0.923	12.5	17.5
Shveytsariya	0.924	12.0	16.5
Avstraliya	0.923	11.5	15.0
Yangi Zelandiya	0.930	11.0	14.5
Finlyandiya	0.930	10.5	14.0
O‘zbekiston ⁹	0.727	11	12

Germaniya Finlandiya Buyuk Britaniya ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etgan. Raqamli ta’lim platformalari mavjud shu bilan birga STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) ta’limga integratsiyalangan. Bu ta’lim asosida o‘quvchi dunyoda yuz berayotgan muammolarga yechim topishni o‘rganadi. Bu metodlar davlatni ushbu ko‘rsatkichlarda yuqori o‘rinda turishini ta’minlaydi.

Inson kapitalining yana biri bu insonning salomatlik darajasidir. Salomatlik darajasi insonning mehnat faoliyatidagi samaradorligini belgilaydi. Sog‘lom fuqaro barqaror ishlashga qodir bo‘ladi, ishlab chiqarishda uzluksizlik va unumdorlikni ta’minlaydi. Shu sababli, sog‘liqni saqlash tizimiga kiritiladigan sarmoyalar ham iqtisodiy samaradorlik bilan bog‘liqdir.

2-jadval

“Dunyo davlatlari va O‘zbekistonning sog‘liqni saqlash sohasidagi asosiy ko‘rsatkichlari 2023”¹⁰

Davlat	O‘rtacha hayot davomiyligi (yil)	Sog‘liqni saqlashga ajratilgan byudjet ulushi (%)	Kasalliklar bilan bog‘liq darajasi (%)	Sog‘lom umr davomiyligi (yil)
--------	----------------------------------	---	--	-------------------------------

⁸Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Inson Taraqqiyoti Indeksi (HDI) 2022: <https://hdr.undp.org/en/2023-report>

⁹ <https://www.gazeta.uz/en/2024/03/15/hdi>

¹⁰ Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO), *Global Health Observatory Data Repository*, 2023.

URL: <https://www.who.int/data/gho>

Davlat	O'rtacha hayot davomiyligi (yil)	Sog'liqni saqlashga ajratilgan byudjet ulushi (%)	Kasalliklar bilan bog'liq darajasi (%)	Sog'lom umr davomiyligi (yil)
Shveytsariya	83.6	12.1	23	75
Norvegiya	82.9	10.5	25	73
Germaniya	81.1	11.3	28	72
AQSh	78.9	17.7	32	69
O'zbekiston ¹¹	73.2	6.5	35	63

Dunyo davlatlarida sog'liqni saqlashga byudjet ulushi 10-17% oralig'ida bo'lib, O'zbekiston 6.5% bilan pastroq ko'rsatkichga ega. O'zbekistonning o'rtacha hayot davomiyligi 73.2 yil, rivojlangan davlatlarga nisbatan biroz past. Bu ko'rsatkichlar sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan davlatlar (Shveytsariya, Norvegiya, Germaniya)da sifatli va universal tibbiy xizmatlar tashkil etilgan. Har bir fuqaro uchun mavjud bo'lgan, yuqori texnologiyalarga asoslangan davolash tizimi mavjud. Bundan tashqari o'z tibbiyotiga kiritayotgan innovatsiyalar yani tibbiy texnologiyalarga doimiy sarmoya kiritish va ilmiy tadqiqotlar olib borilishi. Shu metodlar orqali bu davlatlar ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda.

Inson kapitali bo'lmish amaliy bilim va texnik ko'nikmalar – zamonaviy iqtisodiyotda muvaffaqiyat kalitidir. Mehnat bozorida doimiy raqobat sharoitida bo'lish uchun ishchi kuchi muntazam yangilanib turuvchi kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarida orttirilgan tajriba ish samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Tajribali kadrlar murakkab muammolarni hal qilishda, resurslardan oqilona foydalanishda va innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

3-jadval

“O'zbekiston va rivojlangan davlatlarning kasbiy malaka va ish tajribasi ko'rsatkichlari 2023”¹²

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi, *Statistik ma'lumotlar*, 2023.

URL: <https://www.minzdrav.uz/uz/statistika>

¹² Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO), *Global Employment Trends Report 2023*.

URL: <https://www.ilo.org/global/research/global-reports/global-employment-trends/lang--en/index.htm>

Ko'rsatkich	O'zbekiston ¹³	Germaniya	Janubiy Koreya	Kanada	AQSh
Kasbiy ta'lim olganlar ulushi (%)	30%	55%	65%	60%	50%
Malaka oshirish kurslarida qatnashganlar (%)	12%	40%	45%	42%	38%
O'rtacha ish tajribasi (yil)	10	15	14	16	14
Ish bozoridagi faol yoshlar ulushi (%)	55%	72%	75%	70%	68%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston kasbiy ta'lim olganlar va malaka oshirish kurslarida qatnashganlar ulushi bo'yicha rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ancha past ko'rsatkichlarga ega. Bu holat mehnat bozoridagi malakali kadrlar yetishmasligi va ishchi kuchining raqobatbardoshligini pasaytirishi mumkin. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlardagi kasbiy ta'lim va malaka oshirish tizimlarining yuqori darajada ekanligi, ishchilarni doimiy rivojlantirish va o'qitishga katta e'tibor qaratilishi ularning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Germaniya va Janubiy Koreada umrboqiy o'qitish metodi qo'llaniladi ya'ni ishchilarning doimiy ravishda malakasini oshirishga qaratilgan majburiy tizim mavjud. Bu orqali insonlar o'z malakasini malum muddatda (har 2-3, 5-7 yilda) yangilab boradi. Yana ular dual tizimda (amaliy+nazariy) ish olib boradi. Misol uchun Germaniyada kasbiy ta'lim ishlab chiqarish bilan bog'langan. Shu metodlar orqali yuqori ko'rsatgichga ega.

Munozara va tavsiyalar.

1. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish.

O'zbekiston ta'lim indeksi bo'yicha rivojlangan davlatlardan ancha orqada qolmoqda. Bunga sabab sifatli ta'lim infratuzilmasining yetarli emasligi, o'qituvchilarning malaka darajasi va moliyaviy ta'minotning pastligi bo'lishi mumkin. Shu sababli quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir:

- Ta'lim sohasiga ajratiladigan davlat byudjeti hajmini oshirish orqali maktab va oliy o'quv yurtlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

- STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) dasturlarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali o'quvchilarda texnik va analitik fikrlashni rivojlantirish.

- O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, IB, Cambridge, va boshqa tan olingan dasturlar bilan integratsiya qilish.

Bu chora-tadbirlar orqali inson kapitalining bilim va innovatsion salohiyati ortadi, raqobatbardosh kadrlar yetishtiriladi.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Bandlik va Mehnat Munosabatlari Vazirligi, *Statistik hisobot 2023*.
URL: <https://mehnat.uz/uz/statistika>

2. Sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish va sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish

Mehnat bozorining barqarorligi va unumdorligi bevosita aholining sog'lomligiga bog'liq. O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimiga ajratiladigan byudjet ulushi 6.5% atrofida bo'lib, rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ancha past. Quyidagi takliflar dolzarb hisoblanadi:

- Birlamchi tibbiy yordam muassasalarining sonini ko'paytirish, ayniqsa, qishloq va olis hududlarda.

- Profilaktik tibbiyot xizmatlarini kuchaytirish, yurak-qon tomir, diabet va saraton kasalliklarining erta aniqlanishi bo'yicha skrining dasturlarini kengaytirish.

- Aholi o'rtasida sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik va zararli odatlarning oldini olish bo'yicha ommaviy targ'ibot kampaniyalarini yo'lga qo'yish.

Sog'lom fuqarolar – barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy garovidir.

4. Tajriba almashinuvi va yoshlarni ishga jalb qilishni rag'batlantirish

Ish tajribasi va yosh kadrlarning bandlik darajasi O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Quyidagilarni taklif qilamiz:

- Tajribali mutaxassislar ishtirokida mentorlash (usta-shogirdlik) dasturlarini rivojlantirish, korxona va tashkilotlarda yosh kadrlar uchun amaliyot imkoniyatlarini kengaytirish.

- Oliy ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish sektori o'rtasida mustahkam hamkorlik o'rnatish, "kollej-korxona" modeli asosida ta'limni amaliyot bilan bog'lash.

- Yangi bitiruvchilarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga soliq imtiyozlari, grantlar yoki subsidiya shaklidagi rag'batlar taqdim etish.

Bunday chora-tadbirlar orqali yoshlar bandligini oshirish va ularning iqtisodiy faoliyatga to'liq jalb etilishini ta'minlash mumkin.

Xulosa

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida inson kapitali iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi omili sifatida e'tirof etilmoqda. An'anaviy ishlab chiqarish resurslari – yer, mehnat va kapital bilan bir qatorda, insonning bilim, sog'liq, malaka va tajribalari bilan bog'liq salohiyati iqtisodiyotda ustunlikni belgilovchi strategik manba sifatida maydonga chiqmoqda. Maqolada keltirilgan tahlillar asosida O'zbekiston inson kapitalini rivojlantirish borasida muayyan yutuqlarga erishayotgan bo'lsa-da, ta'lim, sog'liqni saqlash va kasbiy malaka kabi yo'nalishlarda hali ham yechimini kutayotgan masalalar mavjudligi ko'zga tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). Inson kapitalini rivojlantirishga doir strategik reja [Strategic plan on human capital development]. Toshkent.

2. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. (2022). Inson kapitalining rivojlanish istiqbollari [Prospects for human capital development]. Tahliliy hisobot.

3. Azizov, S. (2021). Inson kapitalining iqtisodiyotdagi o'rni va rivojlanish yo'llari. Milliy iqtisodiyot jurnali, (2), 33–40.

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2022). Inson kapitaliga sarmoya kiritishning iqtisodiy foydalari [The economic benefits of investing in human capital]. Toshkent.

5. O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. (n.d.). Retrieved June 24, 2025, from <http://www.gov.uz>

6. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. (n.d.). Retrieved June 24, 2025, from <http://www.lex.uz>